



## FARG'ONA VILOYATI FARG'ONA TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 29-aprel

107-11-163-Q/25

Farg'ona tumani hokimligi

### **Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi yangi umumi o'rta ta'lim maktabiga maqom berish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabr kungi PQ-404-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunining 30-moddasi hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 16-aprel kunidagi 02-27-962-sonli xati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi qonunning 6, 25-moddalarini qo'llab

### **QAROR QILAMAN**

**1.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabr kungi PQ-404-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunining 30-moddasi hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 16-aprel kunidagi 02-27-962-sonli xati ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

**2.** Farg'ona tuman "O'zbekiston" MFYda joylashgan yangi 660 o'rinni yangi umumi o'rta ta'lim maktabiga 25-son raqam va yuridik maqom berilsin hamda mazkur tashkil etilgan ta'lim muassasasining Ustavi tasdiqlansin.

**3.** Iqtisodiyot va moliya bo'limi (A.Yusupov)ga

- maktabgacha va maktab ta'limi bo'limining tasdiqlangan harajatlar smetasi va shtatlar jadvalini belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilishini hamda tegishli shaxsiy hisob varaqlarni ochilishini ta'minlasin.

**4.** Tuman Davlat Soliq inspeksiyasi (I.Sharopov)ga

- maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga qarashli yangi tashkil etilayotgan 25-sonli maktabga soliq to'lovchining identifikatsiya (STIR) belgilangan tartibda berish yuklatilsin.

**5. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (J.Xasanov)ga**

- 25-sonli maktab uchun dumaloq va burchakli muhrlarni olishda amaliy yordam berish vazifalari topshirilsin.

**6. Kadastr palatasi tuman bo‘limi (N.Otajonov)ga**

- qurib bitkazilgan yangi ta’lim maktabi va 12x24 metr o‘lchamdagи sport zali bino-inshootlarini kadastr hujjatlarini tayyorlasin.

**7. Maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi (Sh.Yuldashev)ga**

- yangi maktabni Ustavini belgilangan tartibda Davlat xizmatlari markazidan ro‘yxatdan o‘tkazish;
- maktabga o‘quvvat chilarni tanlov asosida ishga qabul qilish;
- maktab direktorlik lavozimiga menejerlik sertifikatiga ega nomzodlar orasidan tayinlash;
- maktabga o‘quvvat chilarni belgilangan tartibda qabul qilish;
- maktabga qabul qilingan o‘quvvat chilarni Vazirlikning elektron tizimi ([erp.maktab.uz](http://erp.maktab.uz))ga kiritish va elektron tizim orqali o‘quvvat chilar harakatini amalga oshirish vazifalari yuklatilsin.

**8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilib borish tuman hokimining o‘rinbosarlari M.Qodirxonov va I.Toshpo‘latovlar zimmasiga yuklatilsin.**

**Farg‘ona tuman  
hokimi**



**INOMOV  
XAMIDULLO.TADJIYEVICH**